



YER RESURSLARINI BOSHQARISHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI IXTISOSLASHTIRISH VA TARMOQLARINI TO'G'Rİ TAQSIMLASH

Nasimova Nigora Usmonovna - "TIQXMMI" Milliy Tadqiqot Universiteti magistranti

Bekmurodova Muyassar Yodgor qizi - "Urganch Davlat Universiteti" magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini to'g'ri taqsimlashining ahamiyati yoritib o'tilgan. Bundan tashqari yerdan oqilona foydalanish istiqbollarini tadbiq etishning samarali yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Yer, qishloq xo'jaligi, ixtisoslashtirish, qishloq xo'jalik tarmoqlari, dehqonchilik, chorvachilik, tarmoqlarni to'g'ri taqsimlash.

Kirish. "Yer" tushunchasi hayotning turli sohalarida – ichki munosabatlardan tortib xalqaro huquqgacha keng qo'llaniladi. "Yer" atamasiga umumiy holda D.I. Mendeleyev quyidagicha ta'rif bergan: "Yer - odamlarning hayoti va butun sanoat rivojlanishi mumkin bo'lgan tabiiy sharoitlar yig'indisi." Butun sanoat deyilishidan maqsad bunda yerning asos ya'ni bazis ekanligini inobatga olgan holda, yer barcha bino inshootlar uchun poydevor vazifasini o'taydi. Qolgan sohalar ya'ni oziq ovqat ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik sohalari, chorvachilik, parrandachilik kabi sohalarda esa yer asosiy xom ashyo sifatida foydalaniлади. Qishloq xo'jaligi sohasida yer o'z navbatida, o'zining tabiiy potensialidan kelib chiqqan holda muhim moddiy omil bo'lib xizmat qiladi. Yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish ob'yekti va vositasi, shu bilan birgalikda alohida xususiyatlari tufayli moddiy va tabiiy boyliklarni olishga imkon yaratuvchi resurs hisoblanadi.

"Qishloq xo'jaligi - iqtisodiyotimizning to'rtadan bir qismini tashkil qiladigan
muhim soha"

Sh.Mirziyoyev

Mavzuning dolzarbliji. Hozirgi davrda, qishloq xo'jaligi tarmog'ida aholi iste'mol qilayotgan tovarlarning 95 foizidan ko'prog'i ishlab chiqarilmoqda. Ular dehqonchilik hamda chorvachilik mahsulotlaridan iboratdir. O'tgan yillarda O'zbekiston Respublikasi



yalpi ichki mahsulotining 26,8 foizi qishloq xo'jaligida yaratilgan. Shu yilda barcha sanoat tarmoqlarida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 17,1 foizi, qurilishda esa 4,5 foizi yaratilgan. Raqamlar qishloq xo'jalik tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni ulkan ekanligidan dalolat bermoqda. Shu yilda qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan barcha turdag'i tadbirkorlar tomonidan 4732,0 mlrd so'mlik yalpi mahsulot yaratilgan. U asosan 3535,4 ming tonna paxta, 6017,1 ming tonna don, 3315,9 ming tonna sabzavot, 846,3 ming tonna meva, 996,3 ming tonna go'sht, 4280 ming tonna sut, 674,8 ming dona qorako'l teri, 1860,3 mlrd. dona tuxum va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlaridan tashkil topgan.

Yuqoridagi natijalardan ma'lumki, respublikamiz iqtisodiyoti rivojlanishida va hayot tarzining yaxshilanishida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hamiyati ancha yuqori.

O'zbekiston Respublikasi 1998-yil 30-aprel 598-I-sonli Qarori asosida qabul qilingan Yer kodeksi 1-moddasida yerning davlat siyosati darajasida ahamiyatli ekanligi belgilab qo'yilgan⁷⁰:

“Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Yer to‘g‘risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko‘zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdarligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta’minalash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek bu sohada qonuniylikni mustahkamlashdan shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning oldini olishdan iborat.”

Biz yer resurslarini oqilona foydalanishimiz uchun avvalambor uni boshqarishni, maqsadli tarzda yo'naltirishni o'rganishimiz lozim. Boshqarish tashqaridan kelayotgan axborotni qayta ishlash, tahlil qilish yo'li bilan olingan yechimga asoslangan buyruq

⁷⁰<https://lex.uz/docs/152653>



axborotni hosil qilishdir. Boshqarishning mohiyati akademik A.I Berg asarlarida yetarlicha asoslab bergen. Uning fikricha, boshqarish-sistemi, uning parametrlariga ta'sir etish yo'li bilan yangi, oldindan belgilangan holatga o'tkazish jarayonidir.⁷¹ Haqiqatdan ham boshqarish orqali ma'lum bir tizimga oldindan belgilab qo'yilgan maqsadga asoslangan holda ta'sir o'tkazishimiz asnosida biz ko'zlagan maqsadga erisha olamiz va uni albatta nazoratga olgan bo'lamic. Yer resurslariga ham biz ta'sir o'tkazib, undan maqsadli va oqilona foydalanamiz.

Yer resurslarini boshqarish- umumiyligi ijtimoiy yerga bo'lgan munosabatlarni o'zida qamrab oladi. Bunday munosabatlarga ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va huquqiy jihatdan yondashilgan munosabatlar kiradi. Yer munosabatlarini boshqarishga o'z nuqtai nazarimizdan ta'rif beradigan bo'lsak, davlat va jamiyatning yer resurslariga qaratilgan boshqaruv tizimini muntazam va aniq bir maqsadga qaratilgan ta'sir ko'rsatilishidir. Bunday ta'sir ko'rsatish natijasi, mamlakatimizda yer resurslaridan samarali foydalanish maqsadida ishlab chiqiladigan qonun va normativlarni bilish bilan birgalikda, uni amaliyotda qo'llashga undaydi.

Iqtisodiy islohotlarning katta miqdori bevosita agrar sohaga ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga qaratilgan. Chunki aholining aksariyat qismi qishloqda yashashi, iqtisodiyotning agrar-sanoat tarzida ekanligiga bog'liq. Bu o'z navbatida, dehqonchilikni rivojlantirib, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishining samarali yo'llarini izlashga olib keladi. Shu asnoda, ishlab chiqarishni to'g'ri joylashtirish va uning tub mohiyatini aniqlash orqali yer resurslarini boshqarishga manfaatli yondashgan bo'lamic.

Ishlab chiqarishni joylashtirish – qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida respublika tumanlarining tabiiy-iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va ekologik omillarini inobatga olgan holda joylashtirish tushuniladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini joylashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotini miqdor tomonlama ko'rsatib, mamlakat hududlarida joylashgan har bir xo'jalik, tuman, viloyat, qanday turdag'i qishloq

⁷¹X.G. Karimov M.Q. Bobojanov. **Avtomatik boshqarish va rostlashnazariyasi asoslar** i-T.: «Fan va texnologiya», 2015 -112b.



xo'jalik mahsulotini ekishni va qanday turdag'i chorva mollar turini saqlashni va ularga mos bo'lgan xizmat ko'rsatishni aniqlab beradi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish korxonalar oldida turgan asosiy vazifalarni to'liq bajarilishi ya'ni, ishlab chiqarishga ilg'or, ekologik toza agrotexnika, zooveterinariya, texnikaviy xizmat, organik va mineral o'g'itlar hamda o'simliklarni va chorvani himoya qilish vositalarini, fan yutuqlari, ilg'orlar ish tajribasini joriy etib, ulardan unumli foydalanib, mehnat va mablag'larni kam sarflagan holda qishloq xo'jaligiga yaroqli har bir gektar yer va shartli bosh mol hisobiga dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini mumkin qadar tez va barqaror ko'paytirishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish bo'yicha ish olib borganda quyidagi tamoyillarga qat'iy amal qilish lozim:

- ixtisoslashtirish va joylashtirishda muntazamlik va barqarorlik;
- xo'jalik iqtisodini va ishlab chiqarish tuzilmalarini hisobga olgan holda, tashkiliy mulk shaklini va ishlab chiqarish yo'nalishini tanlashga ilmiy yondashish;
- korxonalarning bir-biri bilan ixtiyoriy hamkorlik va iqtisodiy mustaqillagini saqlash;
- korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni tashkil qilishda, ijtimoiy mehnat taqsimotini amalga oshirishda va mehnat resurslaridan foydalanishda demokratik tamoyillarga amal qilish;
- ish bajaruvchilarining mehnat unumdorligini o'stirganligi uchun moddiy manfaatdorligini ta'minlash;

Iqtisodiyotning ixtisoslashuvini belgilovchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari joriy yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan tovar mahsuloti tarkibidagi ulushi bilan belgilanadi. Agar qishloq xo'jaligi korxonasining tovar mahsuloti tarkibida bitta tarmoqning ulushi 75% dan oshsa, bunday xo'jaliklar yuqori ixtisoslashgan deb ataladi.



Ular, qoida tariqasida, sanoat tipidagi korxonalar (parrandachilik fermalari, issiqxonalar va boshqalar).

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tuproq va iqlim sharoiti bilan uzviy bog‘liqligi undagi mehnat taqsimotini geografik jihatidan taqsimlanish zaruriyatini keltirib chiqaradi va bu xususiyat uning joylashishida o‘z ifodasini topadi. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish uni ixtisoslashishi bilan uzviy bog‘liqdir. Ixtisoslashtirishni amalga oshirishdan oldin hudud va xo‘jalikning tabiiy va iqtisodiy sharoiti sinchiklab hisob kitob qilinadi va so‘ng qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ratsional joylashuvi ta’minlanadi.

Ixtisoslashtirish-ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsuli bo‘lib, u har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning o‘ziga xos bo‘lgan iqtisodiy qonunlari ta’sirida vujudga keladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga ixtisoslashuv mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishni birgalikda rivojlantirish zarurati o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lib, bu qishloq xo‘jaligiga xos bo‘lgan tabiiy, texnologik va tashkiliy talablarni yaxshiroq hisobga olishga imkon beradi.

Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashtirish hududiy jihatdan quyidagi shakllarga bo‘linadi:

1. Zonalar bo‘yicha ixtisoslashish;
2. Xo‘jaliklararo ixtisoslashish;
3. Xo‘jalik ichidagi ixtisoslashish;
4. Tarmoq ichidagi ixtisoslashish.

Zonalar bo‘yicha ixtisoslashish- bu mamlakat viloyat va qishloq xo‘jaligi hududlari va boshqa shu kabi ma’lum territorial birlıklarning ixtisoslashtishidir.

Xo‘jaliklararo ixtisoslashtirish - deganda xo‘jalik va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarini ma’lum qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirishga moslashishi tushuniladi.



Xo‘jalik ichidagi ixtisoslashtirish - bu xo‘jalik ichki bo‘linmalarida, kichik jamoa guruhlarini, fermalarni ma’lum qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashishi tushuniladi.

Tarmoqlar ichidagi ixtisoslashtirish deganda xo‘jaliklar va ularning bo‘linmalarini pirovard mahsulot ishlab chiqarishni texnologik bosqichlar bo‘yicha moslanishiga aytildi. Bunda ishlab chiqarish jarayonlari, o‘zicha alohida bo‘lgan xo‘jaliklar va ularning bo‘linmalari o‘rtasida farqlanadi. Bu turdagи ixtisoslashish hozirda ayniqsa parrandachilikda, sut va go‘sht qoramolchiligidа keng tarqalgan.

Xorij tajribalariga nazar soladigan bo’lsak, Rossiya misolida qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini tahlil qilamiz.

So‘nggi yillarda Rossiya Federatsiyasi hukumati agrosanoat kompleksi va ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga katta e’tibor qaratmoqda. Buning sharofati bilan Rossiya qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik davlatga aylandi. Dunyodagi barcha ekin maydonlarining 10 foizi Rossiyada to’plangan. Bu yerlarning 4/5 qismi Shimoliy Kavkaz, Ural, G‘arbiy Sibir va Markaziy Volgabo‘yida joylashgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda Krasnodar o‘lkasi, Rostov viloyati, Belgorod viloyati, Tatariston Respublikasi, Voronej viloyati, Stavropol o‘lkasi, Boshqirdiston Respublikasi, Oltøy o‘lkasi, Volgograd viloyati va Tambov viloyati yetakchilik qilmoqda.

Rossiyada qishloq xo‘jaligi asosan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash sanoati uchun xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashgan o‘zaro bog’liq tarmoqlar to’plamidir.

Qishloq xo‘jaligi Rossiya yalpi ichki mahsulotining taxminan 4% ni tashkil qiladi. Unda band bo‘lgan aholi ulushi asta-sekin kamayib, 5,5 foizni tashkil etadi. Taqqoslash uchun: 2000 yilda - 15%, 2010 yilda - 9,6%.

Qishloq xo‘jaligi ikki sohani o‘z ichiga oladi: o‘simglikchilik va chorvachilik. O‘simglikchilikning asosini don (javdar, bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, sholi va boshqalar) tashkil etadi. Boshqa ekinlardan texnik ekinlar (qand lavlagi, kungaboqar, tolali zig‘ir),



sabzavot ekinlari (kartoshka, piyoz, sabzi va boshqalar), qovoq (qovun, tarvuz) yetishtiriladi. Qishloq xo‘jaligining ikkinchi yo‘nalishi chorvachilik bilan ifodalanadi. Hayvon turlarining xilma-xilligi ixtisoslikni belgilaydi - chorvachilik, qo‘ychilik, parrandachilik, otchilik, baliqchilik, asalarichilik, mo‘ynachilik.

2020 yil oxirida Rossiyaning zamonaviy tarixida birinchi marta Rossiyadan oziq-ovqat eksporti hajmi oziq-ovqat importi hajmidan oshdi. 2020-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti 30,665 milliard dollarni tashkil etdi (o‘tgan yilga nisbatan +20%). 2020 yilda oziq-ovqat eksporti Rossiyaning umumiy eksport tushumining taxminan 10% ni tashkil etdi.

2021 yil Rossiyadan oziq-ovqat eksporti hajmi bo‘yicha yana rekord yil bo‘ldi, qishloq xo‘jaligi eksporti hajmi import hajmidan oshdi. Joriy yilda Rossiyadan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi xom ashyosi eksportining umumiy hajmi 38 milliard dollarga yetdi.

Tashqi bozorlarga sotish hajmini 21 foizga oshirib, 37,1 milliard dollarga yetkazgan Rossiya 2021 yilda qishloq xo‘jaligining yetakchi eksportchilari orasida 2 foiz ulush bilan 18-o‘rinni egalladi. Rossiya mahsulotlarining barcha toifalaridagi ijobiy dinamika, jumladan, g‘alla – 12 foizga – 11,4 milliard dollarga, yog‘-moy mahsulotlari – 48 foizga – 7,3 milliard dollarga, baliq va dengiz mahsulotlari – 25 foizga – 6,7 milliard dollarga, go‘sht mahsulotlari – 32 foizga – 1,2 dollargacha milliard, oziq-ovqat va qayta ishslash sanoati tovarlari – 15% ga 5,2 milliard dollar. 2016-2021 yillarda global qishloq xo‘jaligi eksportining o‘rtacha yillik o’sishi 6% ni tashkil qiladi, Rossiya esa 16% yillik o’sish sur’atini ko‘rsatdi.

Rejalarga ko‘ra, 2023-yilda ekin maydonlari 50 ming getktarga ko‘payib, 82 million getkardan oshadi. Don va dukkakli ekinlar maydoni 136 ming getktarga ko‘payib, 47,6 million getktarni tashkil yetadi. Bug‘doy ekin maydonlari 500 ming getktarga qisqartiriladi. Bahorgi arpa ekiladigan maydonlar 400 ming getktarga, no‘xat ekiladigan maydonlar 125 ming getkardan oshadi. Sholi va grechka ekin maydonlari 2022-yildan sal yuqoriroq rejalahtirilgan. Qand lavlagi va soya yetishtirish rejalahtirilgan.



Xulosa

Yerni boshqarish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: siyosiy, ma'muriy va boshqaruv, huquqiy, ilmiy, texnik va texnologik. Shuning uchun yerni boshqarish ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ma'lum bir kombinatsiyasi natijasidir. Shuning uchun ernes boshqarish tizimi yerga egalik shakliga va boshqaruv funktsiyalarini bajaradigan organga qarab davlat, shahar va xo'jalik ichidagi bo'lishi mumkin.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi davlat va jamiyat ehtiyojlarini, masalan, aholining yuqori darajadagi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy turmush sharoitlarini ta'minlash; tadbirkorlik, ijtimoiy va boshqa faoliyatni samarali rivojlantirish; atrof-muhit xususiyatlarini saqlash va tiklash, shu jumladan yer resurslari; yer uchastkalari uchun to'lovlarning iqtisodiy va ijtimoiy asoslangan tizimini shakllantirish.

Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi katta iqtisodiy ahamiyatga ega: birinchidan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda moddiy va moliyaviy resurslarning jamlanishiga yordam beradi; ikkinchidan, fan-texnika taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlanishning sanoat yo'liga o'tkazish uchun qulay sharoit yaratadi; uchinchidan, mehnatni tashkil etish shakllarini takomillashtirish imkoniyatlarini yaratadi; to'rtinchidan, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ixtisoslashuv korxonalarda ishlab chiqarishning kontsentratsiyasiga yordam beradi va kontsentratsiya darjasini, o'z navbatida, ixtisoslashuvga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti:** Darslik / R.X. Ergashev, Sh.Sh. Fayziyeva, S.N. Xamrayeva; – T.: —Iqtisod-Moliyal, 2018. – 404 b.
- Qishloq xojalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish:** Darslik / A.Obidov , R. Xalilov, S.Aliqulov, M.Djiyanov, S.Nurmanov, A.Abdulmalipov
- Avtomatik boshqarish va rostlash nazariyasi asoslari** -X.G'.Karimov M.Q. Bobojanov. T .: «Fan va texnologiya», 2015 -112b.
- [4.https://lex.uz](https://lex.uz)